

PAPER

SAMARQAND SHAHAR NOMINING TARIXI HAQIDA

Rajabov Jo‘rabek Muzaffar o‘g‘li^{1, *}

¹Nizomiy nomidagi TDPU Magistratura bo‘limi Ijtimoiy–gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) 1–kurs magistranti

*rajabov@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada Samarqand shahrining qadimdan to bugunga qadar turli nomlar bilan nomlanishi, ularning ma‘nolari va turli manbalarda kelgan shakllari haqida malumotlar berilgan.

Key words: kent, Buyuk Ipak yo‘li, yer yuzining sayqali, qo‘rg‘on, sharq manbalari, sivilizatsiya, samar, arxeologik topilma.

Kirish

Jahon sivilizatsiyasida o‘zining muhim o‘rniga ega bo‘lgan Samarqand mana necha asrlardan buyon “Sayqali ro‘yi zamini” deb e’tirof qilinmoqda. Samarqand o‘zining uzoq yillik tarixi mobaynida yuksak madaniy, siyosiy, ijtimoiy–iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan, Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan ko‘hna shahar hisoblanadi. Samarqand hududida insonlar qadimgi tosh davridanoq yashab kelmoqda. Bu yerdan so‘nggi paleolit davriga oid “Siyobcha” yodgorligining (D.N.Lev va M.Jo‘raqulov) topilishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Samarqand tarixiga oid arxeologik topilmalar, qo‘lyozma va asarlarni yetarlicha topishimiz mumkin. Xususan, g‘arb tarixchilaridan Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Strabon, Klavix, sharq olimlaridan Chjan Syan, Syuanzang, arman tarixchisi Sumbat, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qashgariy, Mirxond, Bobur, Abu Tohirxo‘ja Samarqandiyning asarlarida Samarqand tarixiga oid ma‘lumotlar uchraydi. O‘rta asrlarda keng tarqalgan iboralardan “G‘arbda Rim, Sharqda Samarqand” juda ko‘p qo‘llanilgan. Bu esa Samarqand ham Rim kabi “boqiy shahar” deb e’tirof etilganidan dalolatdir. Xalq orasida Samarqand “Sayqali ro‘yi zamini” ya‘ni “Yer yuzining sayqali, jilosi” deb ulug‘langan.

“Samarqand” so‘zining kelib chiqishi, bu nomning shaharga berilishi haqida bugungi kunda turlicha qarashlar mavjud. Samarqand shahar sifatida miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda vujudga kelgan, uning dastlabki nomi so‘g‘diycha “Smarakanve” yoki “Smarakansa” bo‘lgan. Qadimgi so‘g‘d yozma manbalarining barchasida Samarqand shu nom bilan uchraydi. Samarqand qadimgi So‘g‘dning markazi hisoblangan. So‘g‘dning hokimlari “Ixshid” deb nomlangan. Samarqand mld avv VIII asrdan to milodiy IX asrgacha so‘g‘diycha “Smarakansa” nomi bilan atalgan [1.463,464

b.].

Yunon–rim tarixchilarining asarlarida Samarqand “Maroqanda” nomi bilan uchraydi. Maroqanda nomi qadimgi so‘g‘d tilidagi “Smarakansa” so‘zining yunonchadagi tarjima-sidir. Arrian, Strabon va Kvint Kursiy Ruf ma‘lumotlariga ko‘ra mld avv 329–yilda Aleksandr Makedonskiy Hindiqushdan oshib o‘tib uni zabt etib, vayron qilgan. Kvint Kursiy Ruf o‘zining “Makedoniyalik Aleksandr tarixi” asarida Maroqand qal‘asi devorining aylanasi 10,5 km bo‘lganini yozgan. Strabonning ma‘lumotlariga ko‘ra, Spetamen boshchiligidagi qo‘zg‘alon bostirilgach Aleksandr yana Maroqandni vayron qilishga buyurgan. Yana boshqa ma‘lumotlarga ko‘ra, Maroqandning hashamatli saroylari bo‘lgan, shu saroylardan birida kayfi oshib qolgan Aleksandr o‘z safdoshi Klitni o‘ldirib qo‘ygani aytiladi. Shunday qilib antik davr yozma manbalarining deyarli barchasida Samarqand “Maroqand” nomi bilan uchraydi. Bu nom Salavkiylar, Yunon–Baqtriya davrida ham amalda bo‘gan. [5. 88, 101, 108 b].

Eftaliylar, Turk xoqonligi davrida ham Samarqand eski nomi so‘g‘diycha “Smarakansa” nomi bilan nomlangan, chunki bu davlatlar tarkibiga kirgan So‘g‘d ixshidligi amalda deyarli mustaqil bo‘lgan. IX asrda hokimiyat Somoniylar qo‘l ostiga o‘tgach yozma adabiyotlarda Samarqand turkiycha “Semizkent” va forsiycha “Samarqand” nomlari bilan uchraydi.

XI asr ulug‘ tilshunos olimi etnograf Mahmud Qashgariy o‘zining “Devoni lug‘atit turk” asarida shaharning asl nomi “Semizkent” ni asoslashi “kent” so‘zining qishloq, viloyat ma‘nolarini anglatishini, shuning uchun Farg‘onani “O‘zkent” deb, Samarqandni kattaligi uchun “Semiz kent” deb, forslar esa Samarqand deb atashlarini keltirib o‘tgan. Samarqand atrofi dehqonchilik uchun qulay yerlarga boyligi, chorvachilik uchun esa bepoyon yaylovlarga ega ekanligi hamda qulay savdo–sotiq yo‘lida

joylashganligi, uning xalqi doim farovon va boy hayot kechirganligi uchun bu shaharga “semiz qishloq, semiz shahar” nomlari berilgan.[4].

Samarqandning asl nomi “Semizkent” ekanligini, buzib talaffuz qilinganligi sababli “Samarand” ga o'zgarganligini Abu Rayhon Beruniy ham yozib qoldirgan. Bu ma'lumotlar tarixchi Mirxondning “Ravzat us-safo” asarida, Boburning “Boburnoma” es-taligida ham o'z tas-tig'ini topadi. Xususan, “Boburnoma”da shunday malumotlar uchraydi:

“Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Besh-inchi iq-limdur. Samarqandur viloyatini Movarounnahr der-lar. Hech bir yog'iy qahr va g'azab ila munga dast topmog'on.” baldayi mahfuza” derlar. Samarqand amirul mo'minin Usmon zamonida musulmon bo'lg'ondur.Sahobadin Qusam ibn Abbos anda bog'ondur.Qabri Ohanin darvozasining toshidadir. Holo Mo-zori Shohga mashhur.Samarqandni Iskandar bino qilg'on der-lar.Mo'g'ul va turk ulusi Semizkand derlar Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emas-dur.”

“Boburnoma” dagi ma'lumotlardan ham ko'rinadiki, Samarqandni mo'g'ul va turkiy xalqlar “Semizkand” deb atashgan. Bundan tashqari “Boburnoma” dagi ma'lumotlar ko'ra, o'sha davlarda Samarqandni Iskandar qurdirgan degan qarashlar mavjudligini bilishimiz mumkin. Samarqandga Islom dinining ilk qadamlari xalifa Usmon (r.a) davrida yetib kelganligi haqidagi ma'lumot ham qimmatlidir.[3; 58–59 b.].

Qashg'ariy va Beruniy fikrini XIII asr arman tarixchisi Sumbat ham tasdiqlab, shaharning ma'nosi “semiz yoki boy kent” ma'nosini anglatishni ta'kidlagan. Samarqand nomi bilan bog'liq dastlabki ma'lumotlar xitoy manbalarida mavjud.Qadimgi xitoyliklar Samarqandni boshqa tarixiy manbalarda keltirilgani kabi Semizkentni xitoycha talaffuzda “Simizikan” deb atab uni boy, katta shahar deb tushuntirishgan.

Samarqandga ta'lim olgani kelgan xitoylik budda rohibi,alloma va sayyoh Syuanzang (602–664) o'zining “Buyuk Tan davrida G'arbiy o'lkaga sayohat” nomli estalik asarida Samarqandni Semizikent(“Simizikan”) deb aytgan:

“Eli san'atkor va hunarmand,urf-udum va ma'naviyati eliga kuch va jasurlik ato etadi. Simizikan Xitoydan tashqari barcha mamlakatlar uchun ilm va marifat o'chog'idir. Simizikan eli axloqiy xulq va odob qoidalariga ko'ra qo'shni va uzoq xalqlarga doimo o'rnak bo'lib kelgan.” Bundan tashqari Syuanzang Semizkent hukumdorlari, boshqaruvi va harbiy qo'shini haqida ham ma'lumotlar berib o'tgan.

Sohibqiron Amir Temur saroyiga Ispan qirolining elchisi bo'lgan Rui Gonsales de Klavixo “Samarqand ga sayohat kundaligi” da bergan ma'lumotlari ayniqsa ahamiyatlidir. U o'zining asarida nihoyatda muhim ma'lumotni keltiradi va shaharni nima uchun Semizkent ekanligini tushuntiradi:

“Bu o'lkada barcha narsaga –non kabi sharbat va etga,meva-sabzovot va qushlarga boy,bu yerdagi qo'ylar juda yirik bo'lib, ularning quyrug'i juda semiz, ayrim quyruqlarning semizligi yigirma funt keladi. Bu kabi qo'ylar juda ko'p bo'lib, ular shu qadar arzonki senor (Amir Temur) qo'shini bilan bu yerga tushganda, bir juft qo'ylarning narxi bir dukt edi...Nonning narxi shu qadar tubanki, bundan arzon qilish mumkin emas, guruch esa mislsiz ko'p.Bu kentning va yerining bu qadar boyligidan hayratimning cheki yo'q. Shu boylik sabab Samarqand deb ataldi, uning asl nomi Semizkent bo'lib,boy kent demakdir. Semiz ularning tilida boy kent– qo'g'on manosini anglatadi” .

Samarqand IX asrdan to XV asrgacha turkiycha “Semizkent” va forsiycha “Samarqand” nomlari bilan deyarli bir xilda qo'llanilgan.

Samarqand so'zining kelib chiqishiga doir afsona va rivoyatlar ham talaygina uchraydi. Ularda asosan so'z ikki qismdan iborat. Bunga bir qancha misollar keltirish mumkin:

1.Samarqand so'zining birinchi qismi, yani “Samar” so'zi shu shaharga asos solgan yoki bosib olgan kishi nomi bilan atalgan deyiladi.” Kent” esa “qo'rg'on” degan ma'noni anglatadi.

2.Samar ismli kishi hozirgi shahar joydan buloq qazib, ochgani uchun “Samarqazdi” nomidan keyinchalik Samarqand nomi kelib chiqqan deyiladi.

3.Shahar qurilishiga bosh bo'lgan sehrgar-olimlar Samar va Qamarning sharafiga shahar shunday deb atalgan, bu ikki folbinning qabri hatto “Chorsu” me'moriy yodgorligi yaqinida joylashgan deyiladi.

4.Shahar podshoh Samar va malika Qamar sharofati bilan tiklanganligi uchun hozirgidek nomlangan degan rivoyat ham mavjud.

5.Fojiali qismat sohiblari o'smir yigit Samar va qiz Qand muhabbatlariga yodgorlik sifatida shahar tiklanibdi. Aytishlaricha, ularning qabriga maqbara qurilib, keyinchalik bu maqbara atrofida qishloq vujudga kelgan,qishloq esa shaharga asos bo'lgan. Samar va Qand ismlari qo'shilib bu shahar Samarqand deb atalgan.

6.Makedoniyalik Aleksandr go'zal suyuqlisi Samarga atab shahar bino qilgani uchun shahar Samarqand deb atalgan.

7.Qashqar hoqoni Samarboqi Zarafshon vodiysiga bostirib kelib Samarqand joyida turgan shahar devorlarining tagini qazdirib,teshib so'ng egallagani uchun “Samarqazdi” va keyinchalik Samarqand deb ataladigan bo'libdi.

8.Yamanlik Shamar degan podsho shaharga bostirib kelib, uni buzib vayron qilgani uchun Shamarkent keyinchalik Samarqandga o'zgargan.

Ushbu afsonalar hech qanday dalil va asosga ega bo'lmaganligi va shahar tarixida bunday nomli shaxslar ishtiroki haqida hech qanday ma'lumotlar bo'lmaganligi uchun ularni xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida qabul qilish to'g'ri bo'ladi.

Samarqandning nomini grek va yevropalik ayrim tarixchilar qadimgi sanskritcha “Samaria” ga yaqin ,yani “yig'lish, yig'in” so'zlaridan kelib chiqqan deb izohlaydi. Samarqandlik tarixchi Abu Tohirxo'ja Samarqandiy o'zining Samarqand tarixi, arxitekturasini va me'morchiligiga oid asarini “Samariya” deb nomlagan. Aslida Samariya (yahudiycha –Shomron) –Falastindagi qadimgi shahar bo'lib, qadimgi Isroil podshohligining poytaxti bo'lgan va mil avv 880–yilda barpo etilgan.

XII asrning ikkinchi yarmida butun Sharq bo'lab sayohat qilgan vinetsiyalik sayyoh Marko Polo ham o'zining estaliklarida Samarqandni yozib o'tadi:

“Somarkon katta va mashhur shahar “Marko Polo Samarqandga kelmagan, u Samarqand haqida otasi va amakisidan eshitgan. Marko Polo sayohati davrida Samarqand Chingizxon istilosidan so'ng xarobaga aylangan edi. Shaharni “Chingizxon xarobasi” ham deyishgan. Amir Temur Samarqandni o'z davlatining poytaxtiga aylantirgandan so'ng,yangi shahar qurishni buyurdi.Shundan so'ng shahar biroz janubga ko'chdi va yangi shahar, eski shahar qismlariga bo'lindi. Kimsasiz qolgan qadimgi Samarqand avvallari “Hisori ko'hna” ,” Qal ‘ai Hisor” deb atalgan. XVII asrdan boshlab aholi orasida “Qala'ai Afrosiyob” yoki “Afrosiyob” deb atala boshlangan. Afrosiyob mld avv VII asrda yashagan turkiy xalqlarning mashhur hoqoni Madayxonning forsiy tildagi nomidir. Bu xoqon Madayqora laqabi bilan mashhur, chunki turkiy xalqlarda qora kuch–qudrat ramzi hisoblangan. Madayxon kuchligi, dushmanlardan doim g'alaba qozonganligi uchun Alp–er To'nga –yo'lbarsdan ham kuchli odam nomini olgan. Uni Eron shohi Kayxusrav zaharlab o'ldirgan. Afrosiyob so'zi forsha “afro” – balandlik, yuksaklik,” siyoh–ob” –qora suv degan ma'noni bildiradi. Demak, Afrosiyob forschada “qora suv bo'yidagi balandlik, tepalik” ma'nosini anglatadi. Uning yonidan Siyob arig'i o'tgan bo'lib aholi undan muntazam foydalangan.Afrosiyob so'zi turkiy ,forsiy va ko'plab xalqlar adabiyotidan keng o'rin olgan [1].

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Samarqand mil av VIII asrdan to milodiy IX asrgacha so'g'dcha "Smarakansa" yoki "Smarakanve" nomlari, IX-XV asrlarda turkiycha "Semizkent" va forsiycha "Samarqand" nomlari bilan, XV asrdan to'liq barcha adabiyotlarda "Samarqand" nomi bilan atalgan. Shahar antik davrda "Maroqanda", "Maroqand" nomlari bilan nomlangan. XVII asrda esa uning xaroba qismi "Afrosiyob" nomini oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent 2000-y. A va S harflari. 463,464 b
2. "Afrosiyob –qadimiy madaniyat" V. Shishkin. 1926-y.
3. "Boburnoma" Zahiriddin Muhammad Bobur." Sharq" nashriyoti. 2000-y. 58-59 b.
4. "Devonu lug'atit turk" Mahmud Qashg'ariy. O'zb SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti. Toshkent-1963y.
5. "Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida" Zohir A'lam. "Yurist-media markazi" nashrioti. Toshkent-2008-y. 88,101,108 b.